ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK:494.3 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2201

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODIINI O'RGATISHDA "MUAMMOLI TA'LIM" METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

G.Rahimova, S.Kiyamova
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqola umumta'lim maktablarining barcha sinflarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida berilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, shuningdek, ulug' bobomizning insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi badiiy asarlar orqali shoir shaxsining o'quvchilarga ibrat bo'luvchi jihatlarini aniqlashga bag'ishlangan. Shoir asarlari namunalarini g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish, "Muammoli ta'lim" metodi asosida uning ma'nolari xazinasidan o'quvchilarni bahramand etish, ularda buyuk mutafakkir ijodiga qiziqish uyg'otish hamda ma'naviy-estetik didini tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: metod, rivoyat, hikmat, sharh, hasbi hol, doston, qissa, g'azal, qit'a, ruboiy.

Значение использования метода «проблемного образования» в обучении жизни и творчеству Алишера Навои учащимся общеобразовательных школ

Аннотация. Статья посвящена обобщению сведений о жизни и творчестве Алишера Навои во всех классах общеобразовательных школ, а также выявлению образцовых для читателей сторон личности поэта через художественные произведения, отражающие его человеческие качества. Идейно-художественный анализ образцов произведений поэта, на основе метода "проблемного воспитания", предполагает наслаждение читателей сокровищницей его смыслов, пробуждение у них интереса к творчеству великого мыслителя, воспитание духовно-эстетического вкуса.

Ключевые слова: метод, повествование, мудрость, комментарий, Хасби-хол, эпос, рассказ, газель, континент, рубаи.

The significance of using the method of "problem education" in teaching the life and creation of Alisher Navoi to students in general education schools

Abstract. The article is devoted to the generalization of information about the life and work of Alisher Navoi in all classes of secondary schools, as well as to the identification of exemplary aspects of the poet's personality for readers through works of art that reflect his human qualities. The ideological and artistic analysis of the samples of the poet's works, based on the method of "problem education", involves readers enjoying the treasury of his meanings, awakening their interest in the work of the great thinker, educating spiritual and aesthetic taste.

Key words: method, narrative, wisdom, commentary, hasbi case, epic, short story, gazelle, continent, quatrain.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining deyarli barcha sinflari adabiyot darsliklarida Hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodi, shuningdek, ulug' bobomizning insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi asarlar orqali shoir shaxsi haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarga taqdim etib kelinmoqda.

Ayniqsa, 10-sinfda Alisher Navoiyning hayoti va ijodni o'rganishga keng o'rin berilgan. Shoir tarjimai holini o'rganish, birinchidan, uning sinfda tahlil etiladigan asarlarini chuqurroq tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, mutafakkir shaxsiyatidagi ibratli axloqiy sifatlar misolida o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Hazrat Alisher Navoiy tarjimai holini o'rganishda an'anaviy xronologik ko'rsatgich o'rniga barcha sinflarda berilgan, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan shoir haqidagi rivoyat, tarixiy va badiiy hamda o'zining hasbi holi aks ettirilgan asarlarni takrorlash orqali yetkazilsa, o'quvchilarning ulug' mutafakkir haqidagi tasavvurlarining umumlashtirishiga hamda ularning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

Buning uchun "Muammoli ta'lim" metodidan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Mashg'ulotning boshida o'qituvchi Alisher Navoiyning shaxs sifatidagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati, shaxsiy fazilatlari, sermahsul ijodkor bo'lganligi, xalqimizning ulug' farzandi ekanligi haqida qisqacha aytib o'tganidan so'ng, ushbu metod to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot beradi.

“Muammoli ta’lim” metodi asosan o‘quvchilar tomonidan olib borilishi ta’kidlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga boshlang‘ich sinflardan tortib to bugungi kungacha shoirning hayoti va ijod yo‘llariga qanday qiziqish bilan qaraganliklarini, bobomiz haqidagi ma’lumotlardan qanday darajada xabardor ekanliklarini aniqlash maqsadida, ulardan bilganlarini so‘zlab berishi muammosi qo‘yiladi. Ularga bu muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib, bu kechimda o‘zlari o‘qigan qo‘shimcha adabiyotlardan ham foydalanishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Dars jarayonida og‘zaki shaklda Alisher Navoiy tarjimai holi bilan bog‘liq ma’lumotlarni yillar kesimida, tarixiy rivoyatlar, badiiy asarlar, tarixiy manbalar va shoirning o‘z asarlaridan olingan hasbi holi misolida o‘rganishga kirishiladi. Har bir guruhdan 1 o‘quvchi aytilgan ma’lumotlarni yozma ravishda qayd etib boradi Buning uchun sinfdagi o‘quvchilar quyidagicha 3 guruhga bo‘linishadi:

1-guruh –1-4-sinflar darajasida **boshlang‘ich**;

2-guruh – 5- 9-sinflar qamrovida **tayanch;**

3-guruh – 10-11-sinflardan iborat **o‘rta.**

Boshlang‘ich ta’limda, ya’ni 1-4 sinf o‘qish darsliklarida buyuk shoirimiz haqidagi bolalarga o‘rnak bo‘ladigan kichik-kichik afsona va rivoyatlar, asarlaridan hikoyat tarzida keltirilan namunalar ishtirokchilar tomonodan xotirada qayta tiklanib aytilib boriladi. Misol uchun, bog‘cha yoshida yoki 1-sinfda ulug‘ bobomizning insoniyat ma’naviyatini boyitayotgan hikmatlari, ularning mazmun-mohiyatini, albatta, eslashadi. Nega-ki, Navoiy hazratlari haqida bilmagan, eshitmagan biror bolakay topilmaydi. Binobarin, Alisher Navoiy hikmatlari bilan qurollangan barkamol avlod jahonga yuz tutadi, Dunyo ilm ahli bilan umumbashariy mavzularda hech qo‘rqmasdan bellasha oladi. Bunday ma’lumotlar Alisher Navoiy hayoti va ijodini yosh bolalarga sodda va tushinarli tarzda o‘rgatishdagi dastlabki qadam bo‘lib xizmat qiladi. Ma’naviy yetuk insonni tarbiyalab voyaga etkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan hozirgi davrda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodidagi ma’rifiy g‘oyalar, pand-o‘git va yo‘riqnomalar biz uchun mukammal dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi[1]. Zero, hazrat Alisher Navoiy bitganidek:

Tilga ixtiyorsiz – Elga e’tiborsiz.
Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Bobomiz bu hikmatlarga eng avvalo o‘zlari amal qilganlar. Barcha asarlarida insonlarni halollikka, mardlikka, yaxshilikka chaqirganlar. Hatto shohning vaziri bo‘lganlarida ham xalq uchun ko‘p yaxshi ishlar qilib, el mehriga tushganlar.

Bolalar tomonidan aytilgan hikmatlar o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilib, sharhlanib boriladi.

2-sinfda berilgan [2] “Tandir”, “Navoiyning do‘sti” rivoyatlarida ulug‘ mutafakkirning bola tarbiyasida topqir va uddaburon bo‘lish, va’daga vafo qilish, do‘stga sadoqat ko‘rsatish kabi insoniy fazilatlari ulug‘langan. Abduqodir Hayitmetovning “Donolarning donasi”, Zamira Ibrohimovaning “Kichkina Alisher” hikoyalarida esa bobokalonimiz Navoiy hazratlari bolalik chog‘laridanoq mulohazali, o‘tkir zehnli bo‘lganligi, ko‘p kitob mutolaa qilganligi, minglab misra g‘azallarni yod bilganliklari haqida so‘z yuritilgan. Uning ustozlari Alisher o‘z ona tilini chuqur bilganliklariga qoyil qolganlar. Abdulla Oripovning “Alisherning onasi” she’rida shunday ulug‘ zotning onasi ham aql-zakovatli, mehribon ayol bo‘lganligi, farzandining shoir bo‘lib yetishishidagi o‘rni va ta’siri qalamga olinadi. Xurshid Davronning “Alisher Navoiy” she’rida shoir asarlarining bebaho xazina ekanligi, ijodidagi ma’rifiy g‘oyalar, pand-o‘git va yo‘riqnomalar ajdodlari uchun mukammal dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi yoritilgan. T.Adashboyev “Navoiy bobomlar…” she’rida Navoiy hazratlarining turkiy tilning imkoniyatlarini “Xamsa”, “Qush tili” dostonlari va lirik asarlari orqali ko‘rsatib berganligi e’tirof etiladi. Bironta o‘quvchi ushbu she’rlarni yoddan aytib berishi ham mumkin.

3-sinfda [3]Oybekning “Bola Alisher” qissasidan berilgan parchada yosh Alisherni otasi G‘iyosiddin tomonidan ilk marotaba maktabga olib borishi, domullasi bilan uchrashuvi voqealari, ota-onasining ustoziga nisbatan tavozeli bo‘lishi haqidagi nasihatlari o‘rin olgan.

4-sinfda[4] Xondamirning “Tanbeh” hikoyati berilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu hikoyat Xondamirning o‘zi ko‘rgan, bevosita guvohi bo‘lgan Alisher Navoiyning shaxsiy fazilatlari haqidagi “Makarim ul-axloq” (Yaxshi xulqlar) nomli tarixiy-badiiy asaridan olingan. Hikoyatda Alisher Navoiyning 1488-yilda amirlik davri bilan bog‘liq voqealar qalamga olingan. Hirotning Jome masjidini ta’mirlash vaqtida Mirak naqqosh yalqov va beparvoligi tufayli ishni tashlab, qishlog‘iga dam olishga ketadi. Ish to‘xtab qolganligi uchun Navoiy aql-zakovat bilan naqqoshni qaytarish tadbirini topadi. Mulozimlarga Mirak naqqosh devoni oliyga 5ming dinor qaytarishi zarurligi haqida

hujjat tayyorlatadi va unga berib yuboradi. Hujjatni ko‘rgan naqqosh zudlik bilan Jome masjidiga yetib keladi va amirdan gunohidan o‘tishini so‘raydi. Amir Navoiy 15 kun ichida ta’mirlashni tugatishi haqida tilxat yozdirib oladi va ishini davom ettirishiga ruxsat beradi. Hikoyatda Alisher Navoiyning naqqoshga nisbatan hech qanday kuch ishlatmasdan o‘ta donolik bilan bergan tanbehida shoirning boshqa amirlardan farqli tomonlari, odamiylik xislatlari tarannum etiladi.

5-sinf [5] adabiy ta’limida Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”dan 10-maqolat - “Rostlik ta’rifida”, bu maqolatga ilova qilingan “Sher ila durroj” hikoyati berilgan.

Dostonning “Yolg‘onning zarari, to‘g‘rilikning foydalari”ga bag‘ishlangan o‘ninchi maqolatida insonlar har qanday sharoitda ham to‘g‘ri so‘zlashga odat qilishi, yolg‘ondan hazar qilishi lozimligi uqtiriladi. Rost so‘zlovchi, o‘z so‘zining ustidan chiqa oladigan kishilar esa xalq orasida doim hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lishi ta’kidlanadi. Hazrat o‘zining falsafiy fikrlarini isboti sifatida “Sher bilan durroj” hikoyatini keltiradi. Ona sher o‘rmonda yosh bolasini ma’lum vaqtgacha bir joyga qo‘yib, o‘zi ov qilgani ketishga majbur bo‘lar, qarovsiz qolgan sherbachchani chumolilar talashib, badaniga shikast etkazar ekan. Shu bois, bolasini yolg‘iz tashlab ketmaslik uchun doimo og‘zida tishlab olib yurishiga to‘g‘ri kelarkan. Bir kuni ona sherning ro‘parasidan durroj (qush) chiqib qoladi. Ular so‘zlashishib, bir-birlari bilan do‘stlashib qoladilar. Shunda ona sher bolasini Durrojga qoldirib bemalol ovga ketadigan bo‘ladi. Durroj yaxshi do‘st bo‘ladi, sherbachchaga g‘amxo‘rlik qiladi, biroq u tabiatan juda yolg‘onchi edi. Har safar ona-bolani aldab, o‘z so‘zlariga laqqa tushishganliklaridan ularni masxaralab kuladi. Ona sherning bundan jahli chiqsada, do‘stligi sabab koyinmaydi. Ammo kunlarning birida Durrojning boshiga chinakamiga tashvish tushib, ayonki, do‘stlarini yordamga chaqiradi, lekin ona sher va uning bolasi bu Durrojning hamshagiday bir hiylasi bo‘lsa kerak deb, yordamga borishmaydi. Oqibatda, Durroj o‘z yolg‘onlarining qurboniga aylanadi, tuzoqqa tushadi.

Nazarimizda bu hikoyatni o‘quvchilar bir-birlari bilan talashib-tortishib so‘zlab berishsa kerak, chunki ushbu hikoyat bilan ular ilk bolalik chog‘laridanoq oshno bo‘lishgan, hikoyat asosida ishlangan ertak-multfilmni televizor orqali takror-takror ko‘rishgan, biroq qanday estetik zabq olishgan, o‘z faoliyatlari davomida undagi voqealardan qanday xulosalar chiqarishgan muhim jihati shunda.

“Hayrat ul-abror”ning axloq, odob, tarbiya masalalariga bag‘ishlangan bo‘limlarida davrning muhim ijtimoiy masalalari bilan bir qatorda shoirning yuksak gumanistik qarashlari o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, shoirning axloqiy-ta’limiy fikrlari diqqatga sazovordir. Kattalarga hurmat va e’tibor, ota-onalar qadr-qimmati, insonga mehribonlik kabi fazilatlar asarning bir necha o‘rinlarida takrorlanadi. Shoir ota-onani kecha va kunduzni yorituvchi quyosh-oyga o‘xshatadi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Shu jihatdan “Xamsa”ning birinchi dostoni bo‘lgan “Hayrat ul-abror” (yaxshilarning hayratlanishi) butun turkumning fikriy-nazariy dasturi sifatida badiiy timsol sarguzashti qurilmasiga emas, balki fikriy-nazariy masalalarning bayoni-maqolot hamda ularni tasdiqlaydigan kichik hikoya va masallardan tashkil topgan qurilmaga asoslangan. Shundan bo‘lsa kerak, maqolotlarda, bir tomondan, insonning ma’naviy-ma’rifiy fazilatlari, jamiyat oldidagi burchi va vazifalari to‘g‘risida so‘z yuritilsa, ikkinchi tomondan, hazrati Insonga dog‘ tushiradigan qabih illatlardan bahs yuritiladi hamda ular qoralanadi.

Alisher Navoiyning “Xamsa”si quyidagi dostonlardan iborat: “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy”. Bu dostonlar “Xamsa” janri talablari asosida o‘zaro bog‘liq yaxlit turkumni tashkil etadi.

6-sinfda[6] Alisher Navoiy nasriy merosining yorqin namunasi “Mahbub ul-qulub” asaridan namunalar kiritilgan. Adib o‘zining boy va serqirra hayotiy tajribasiga asoslanib, agar ta’bir joiz bo‘lsa, shunday bir ko‘zgu yaratadiki, unda kitobxon insonga xos fazilatlarni ham, unga yot bo‘lishi lozim bo‘lgan illatlarni ham yaqqol ko‘ra oladi. Boshqacha qilib aytganda, Navoiy o‘zining bu asari qarshisiga eng avval ulkan falsafiy va didaktik problemalarni qo‘yadi va “o‘quguvchilar diqqat va e’tibor ko‘zi bilan nazar solg‘aylar va har qaysi o‘z fahmu idroklariga ko‘ra bahra olg‘aylar” deb uqtiradi.

Gap shundaki, “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy eng avval buyuk mutafakkir, qomusiy bilim egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy – shoir, Navoiy – satirik. Xalqning ko‘p asrli maqol, matal va hikmatlarini zarshunoslik bilan mujassamlantira olgan buyuk folklorist Navoiy siymosi ham bu asarda ro‘yi-rost namoyon bo‘ladi. Xullas, “Mahbub ul-qulub” Alisher Navoiyning buyuk kamolotini namoyish etuvchi va uning eng ilg‘or etik va estetik qarashlarini g‘oyat ixcham va ko‘rkam tarzda jamuljamlashtiruvchi asardir.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi turli-tuman foydali pandlar va hikmatlarni o‘z ichiga oladi. Asarning bu qismi bilan avvalgi ikki qismi mazmun jihatidan juda yaqin. Zeroki, bu qismda ham avvalgilarda olg‘a surulgan ijtimoiy, siyosiy va axloqiy masalalar qalamga olinadi. Faqat ular endi g‘oyat qisqa, lo‘nda qilib falsafiy sentensiyalar holida bayon etiladi. Asos e’tibori bilan insonga xos fazilatlar madh etiladi, unda insoniylikka zid bo‘lgan illatlar nafratlanadi. Asarning bu qismidagi tanbehlar va keltirilgan misollar Navoiyning o‘zigacha ma’lum bo‘lgan barcha xalq hikmatlari, maqol va matallardan ne chog‘lik o‘rinli foydalanganidan hamda o‘z ijodiga mansub bo‘lgan hikmatlar, dono o‘gitlar va xulosalar bilan ularni boyitganligidan dalolat beradi.

Navoiy til va so‘z masalasi, muomala va nutq madaniyatiga oid qimmatli fikrlarni ilgari so‘radi. Masalan, yolg‘on so‘zlashning yaramas oqibati, achchiqtillilik, insonga yetkaziladigan bitmas jarohat ekanligi, behuda hazilga moyillikning hurmatsizlik keltirishi, rostgo‘ylik va xushmuomalalikning kishilikka foydasi kabi qaydlar g‘oyat muhim bo‘lib, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Navoiy ilm va ilm ahliga yuksak hurmat bilan qaraydi. Mamlakat obodonligi, xalq ahvolini yengillatishda ularga katta umid bog‘laydi.

Olimlik axloqi, madaniyati xususida Navoiy uqtiradiki, haqiqiy olim o‘z bilimlaridan amalda to‘g‘ri foydalanishi, o‘z ilmining darajasi va qadrini puxta bilgan holda, ularni suiste’mol qilmasligi lozim.

7-sinfda[7] “Sab`ai sayyor”dostonining 5-chorshanba (Merkuriy-Atorud) - nilufar rangli qasrda Beshinchi iqlimdan kelgan musofirning Mehr va Suxayl haqidagi hikoyasi berilgan.

Beshinchi sayyoh tilidan aytilgan hikoya xalq og‘zaki ijodi materiallari asosida yaratilgan bo‘lib, Suxaylning sevgi va vafo yo‘lidagi mardlik va qahramonligi, himmat va sadoqati, Mehrning donishmandlik va ijodkorlik kabi xislatlari tarannum etiladi. O‘quvchilar "Sab`ai sayyor"ning qoliplovchi qissasi Bahrom va Dilorom sarguzashtlaridan iborat ekanligini, qissa Bahrom yoki Diloromning tug‘ilish voqealari bilan emas, balki voyaga etgan shoh Bahromning ov jarayonida rassom Moniy bilan uchrashuvi, undan Dilorom tavsifini eshitib, suratini ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qolish voqealarini xotiralariga keltirishadi, o‘zaro bahs-munozaraga kirishishadi.

Shu o‘rinda o‘qituvchi Navoiy Baxromning sarguzashtlarini yangi yo‘nalishda ishlab chiqqanligini, asarning markaziy masalasi sifatida ishqni qo‘yganligini, Baxrom Diloromdan juda bo‘lgach, yetti qasr qurdirganligini, yetti musofirdan hikoya tinglaganligini va bu hikoyalarning qisqacha mazmun-mohiyatini so‘zlab bersa, dostonning umumiy sujeti, mazmun-mohiyati yanada oydinlashadi, bolalarning asar haqidagi tasavvurlari kengayadi. Ular hikoyalardagi qahramonlarning surat va siyrati, faoliyat va sarguzashtlari shu darajada maroqli va jozibaliki, ularni o‘qigan kishi Alisher Navoiyninr she`riy hikoya yozishdagi ulkan mahoratidangina hayratda qolmay, balki umumbashariy ahamiyatga molik nihoyatda muhim masalalarni falsafiy va axloqiy yo‘nalishda qalamga olganining guvohi ham bo‘lishadi. Chunki bular insonni komillikka da`vat etguvchilardir.

1-hikoya - shanba kuni (Saturn-Kayvon kuni) qora qasrda hindistonlik sayyohning Farrux va saxiy Axiy haqidagi hikoyasi.

2-hikoya - yakshanba (quyosh) - sariq rangli qasrda rumlik musofirning Zayd Zahxob haqidagi hikoyasi.

3-hikoya - dushanba (oy) - yashil qasrda shahrisabzlik musofir hikoyati. Dev Katron va jodugar Zol haqida.

4-hikoya - seshanba (mars-Mirrix-Baxrom) gulgun (qizil) qasrda hindistonlik musofir, shoh Jo‘na va saxiy Ma’sud haqidagi hikoya.

5-hikoya - chorshanba (Merkuriy-Atorud) - nilufar rangli qasrda Beshinchi iqlimdan kelgan musofirning Mehr va Suxayl haqidagi hikoyasi.

6 - hikoya - payshanba (Yupiter-Mushtariy) - sandal rangli qasrda Oltinchi iqlimdan kelgan musofirning Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyasi.

7-hikoya - Juma (Venera-Zuxro-Dilorom)-oq qasrda xorazmlik musofirning Dilorom haqidagi hikoyasi.

8-sinfda:[8] Alisher Navoiy “Qilg‘il”, “Deyin”, “Kelmadi”, “Jong‘a chun dermen: ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..”, “Yo‘q”, “Bo‘ldum sanga”, “Bo‘l”, “Etmas”, “Muvofiq kiydilar…”, “To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen...”, “Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at...” g‘azallari, “Kamol et kasbkim...”, “Ayog‘ig‘a kafsh bo‘lmag‘anga…”, “Devonda muhr…” kabi qit’alari kiritilgan.

Har qanday she’riy asarni o‘rganish uni ifodali o‘qishdan boshlanadi. Zero, shoirning g‘oyaviy-badiiy niyati, asarda mujassamlashtirilgan his-tuyg‘ular, qahramonlarning ma’naviy qiyofalari, ijodkorning badiiy dahosi, ona tilining behad go‘zalliklaridan foydalanish mahorati avvalo ifodali o‘qish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchi ijodkor uning ijodxonasi bilan yaqindan tanishib, uning tafakkur olami, badiiy xayolot ko‘lami, insoniy kechinmalarini anglash va ta’sirchan ifodalarda jilolantirish san’atkorligi, har bir so‘z, har bir tovush nafosatu nazokatidan bezavol lirik va epik timsollar chizishda bahramand bo‘lish salohiyatini teran his qiladi. Ifodali o‘qish ijodkor bilan o‘quvchi munosabatlarini ham belgilab, o‘rganilayotgan she’riy asarlarga qiziqish, e’tibor, muhabbat uyg‘otadi. Bu esa she’r tahlili uchun g‘oyatda muhimdir.

O‘quvchi yoshlarni mantiqiy fikrlashlarida Hazrat Navoiyning o‘tkir ma’noli, chuqur falsafiy, mayin va sho‘x ohanglarga boy she’rlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodini o‘rganish uchun ayrim adabiyotshunoslikka oid bo‘lgan ilmlardan xabardor bo‘lish talab etiladi. Ana shunday ilmlardan ayrimlari quyidagilardan iboratdir: she’riy san’atlar, aruz ilmi va qofiya. Bu tushunchalar haqida nazariy ma’lumot berishda ayrim murakkab matnlarni yod olinishining talab etilishi o‘quvchi sevib o‘qiydigan matn mazmunini chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini berishi shubhasizdir.

Hazrat Alisher Navoiyning she’riyati cheksiz bir ummondirki, bu ummondan har bir o‘qirman o‘z salohiyati, qubbai zahirasi darajasida bahra oladi. Shoir g‘azallarini sharhlash orqali o‘rganish shoir merosining asl mohiyatini anglash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib yuqoridagi g‘azallardan birini, ya’ni “Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..” matla’si bilan boshlanadigan yetuk ijod namunalaridan birida qo‘llaymiz. Shoirning bu g‘azalida ma’lum voqelik ta’sirida lirik janrga, ya’ni badiiy matnga aylangan emotsional nutqning ritorik so‘roq ko‘rinishiga keltirilishi va matla’dayoq kitobxonga kuchli ruhiy emotsional ta’sir etilishi bu she’riyatning Navoiyyona badiiy ifodasidir. G‘azal jami 7 baytdan iborat.

1. G‘azalning tuzilish tartibi 7 bayt, 14 misradan iborat bo‘lib, 100 so‘zdan tashkil topgan.

2. Bu g‘azalda she’riyatdagi savol-javob usulidan unumli foydalanilgan. Bunda birov savol beradi, ikkinchi taraf shu savolga javob qaytaradi. Shoirning “Farhod va Shirin” dostonida Xusrav bilan Farhodning aytishuvi ham aynan ana shu yo‘lda qog‘ozga tushirilgan.

3. G‘azalda sarlavha vazifasini bajargan radif mavjud emas shu sababli g‘azal “Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal deb nomlanadi.

4. G‘azal mazmun va g‘oyaviy jihatidan musalsal hisoblanadi, ya’ni lirik qahramonning aytmoqchi bo‘lgan g‘oyaviy fiklari baytdan-baytga rivojanib, o‘sib boradi.

5. G‘azal aruzning ramali musammani maqsur (yoki mahfuz) vaznida bitilgan.

Uning ohangi foilotun - foilotun - foilotun – foilun (yoki foilon).

Taqte’si: - v -----/ - v ------ / - v ------ / - v - (yoki - v ~).

6.G‘azalning vazni, ohanggi va to‘g‘ri talaffuziga e’tibor bergan holda o‘qiladi.

7.G‘azaldagi poetik obrazlar: Jon, jism, bag‘ir, ko‘ngil, ko‘z.

8.G‘azaldagi qofiyadosh so‘zlar: kayfiyati, shiddati, hirqati, ofati, tuhmati, ofati, tal’ati, qismati.

9. Bayt matnini struktural lisoniy tahlil qiladigan bo‘lsak, poetikaning talabi bilan inversiya hodisasi yuz bergan. Shuning uchun avvalo har bir baytdagi poetik ritmik nutqni sintaktik jihatdan gapga aylantiramiz.

10. Tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohi:

kayfiyat -holat

maraz -yara

“za’f”-dard (kasallik)

“hirqat”-otash, kuyish, yonish

barqi-to‘dalangan (jamlagan, o‘ragan)

“ofat”-g‘am-g‘ussa, dard

“Shu’la”-nur
tardomani-etagi ho‘l, telba-jinni (esi joyida emas)
vahshati-ofat (g‘am-g‘ussa)
“mahvash”-oy yanglig‘ go‘zal
“tal’ati” -surati (qiyofasi)
“azal”-taqdir

11. G‘azalda qo‘llanilgan savol-javob, yani diolog, takrir, tanosib, ya’ni mutonosib, sifatlash, metafara, jonlantirish, tashhis qofiya kabi badiiy san’at turlari qatnashgan misralar aniqlanib, izohlanadi.

12. G‘azalda uchraydigan “yuzi qaro”-iborasi izohlanadi.

13. Navoiy qo‘llagan fe’l zamonlari qo‘shimchalari hozirgi zamon fe’l qo‘shimchalari bilan taqqosanadi. Dermen-deyman, erdi-edi, derki-deydiki, so‘rsam-so‘rasam, o‘ldi-bo‘ldi, der-deydi, bag‘rdin-bag‘irdan, ayturki-aytadiki, ko‘zdindur-ko‘zdandir, so‘rdim-so‘radim, aytur-aytadi.

14.Bog‘lovchilar -kim-negaki, -chun-chunki, chun-yana.

15. Kelishik qo‘shimchalarini quyidagicha taqqoslash mumkin:

Jo‘nalish kelishigi: ko‘ngluma-ko‘nglimga, za’fing‘g‘a-za’finga manga-menga, sanga-senga;
Chiqish kelishigi: mandan-mendan, jismdin-jismdan, bag‘rdin-bag‘rdan;
Qaratqich: O‘lmakim-o‘lishimning.
Kishilik olmoshi -ul-u tarzida qo‘llanilgan.

16.G‘azal matnining nasriy bayoni beriladi.

G‘azalning matla’si, ya’ni bosh baytining mazmunini quyidagicha tahlil qilish mumkin.

Jong‘a chun dermen: Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?
Derki: “Bois o‘ldi jism ichra marazning shiddati”.

To‘liq bir g‘azalni savol-javob tarzida bitish Navoiydan oldin yashab, ijod qilgan qalam sohiblari ijodida ham uchraydi. Ammo bu g‘azal ayni san’atni oliy darajada qo‘llashi va mantiqiy asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi.

G‘azalning lirik qahramoni - oshiq. U ishq otashining zo‘ridan o‘lim yoqasiga kelgan. Shuning uchun umatla’dayoq to‘g‘ridan-to‘g‘ri jonidan: “O‘lishimning sababi nima?” - deb so‘raydi. Jon esa unga: “Bunga jismdagi kasallikning shiddati sabab bo‘ldi”, - deya javob qaytaradi.

Ushbu so‘zlardagi –t tovushi raviy sanaladi. Raviydan so‘ng –i egalik qo‘shimchasi bo‘lganligi uchun mutloq qofiya hisoblanadi.

Bayt matnini struktural lisoniy tahlil qiladigan bo‘lsak, poetikaning talabi bilan inversiya hodisasi yuz bergan. Shuning uchun avvalo poetik ritmik nutqni sintaktik jihatdan gapga aylantiramiz:

Jondan o‘lmagimning sababini so‘radim.
Jism ichida marazning shiddati sabab bo‘lganligini aytdi.
O‘z-o‘ziddan ma’lumki, so‘roq gap endi darak gapga aylandi.
Jismdin so‘rsamki, bu za’fing‘g‘a ne bo‘ldi sabab
Der, anga bo‘ldi sabab, o‘tlug‘ bag‘irning hirqati.

Ikkinchi baytda lirik qahramon jismga murojaat qilib, undan: “Bu vaziyatga tushib qolishingga nima sabab bo‘ldi?”, - deb so‘raydi.

Jismning javobi esa quyidagicha: “Bunga o‘tlik bag‘rning hirqati sabab bo‘ldi”. Baytdagi “za’f”-dard (kasallik), “hirqat”-otash, kuyish, yonish, barqi-to‘dalangan (jamlagan, o‘ragan) degan ma’noni anglatadi. Baytda quyidagi badiiy san’atlar ishlatilgan: savol-javob, yani diolog, jism, bag‘ir so‘zlari tanosib, bag‘ir so‘zi ikkinchi misrada ham keltirilganligi sabab takrir, o‘tlug‘ so‘zi sifatlash. Baytning birinchi misrasi -b ochiq, ikkinchi misradagi hirqati so‘zi –a qofiya bo‘lib kelgan. Ushbu so‘zdagi –t tovushi raviy sanaladi. Raviydan so‘ng –i egalik qo‘shimchasi bo‘lganligi uchun mutloq qofiya hisoblanadi. Inversiya hodisasi yuz bergan. Matnni gapga aylantirsak, so‘roq gap darak gapga aylanadi.

Chun bag‘irdin so‘rdum, aytur: “Andin o‘t tushti manga, -
Kim ko‘ngulga shu’la solmish ishq barqi ofati.

Uchinchi baytda savol endi bag‘irga beriladi, u esa: “Menga ko‘ngildan o‘t tushdi, chunki ko‘ngilga ishq chaqmog‘ining ofati shu’la soldi”, - deb javob aytadi.

“Shu’la”-nur, barqi-to‘dalangan (jamlagan, o‘ragan), “ofat”-g‘am-g‘ussa, dard ma’nolarini beradi. Savol-javob, yani diologdan tashqari bag‘ir, ko‘ngil, so‘zlari tanosib, -ofati so‘zi –a tarzida

qofiyalanib kelgan. Ushbu so‘zdagi –t tovushi raviy sanaladi, mutloq qofiya hisoblanadi. Bayt matnini struktural lisoniy jihatdan gapga aylantirsak, o‘z-o‘ziddan ma’lumki, so‘roq gap endi darak gapga aylandi. Chiqish kelishigi bag‘rdin-bag‘rdan, fe’l-so‘rdim-so‘radim, aytur-aytadi, bog‘lovchi kim-negaki, chun-yana tarzida qo‘llanilgan.

Ko‘ngluma qilsam g‘azab, ayturki: Ko‘zdindur gunah.
Ko‘rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati.

To‘rtinchibaytda mantiqan lirik qahramon ko‘ngilga “g‘azab qiladi”, shu tariqa u gunohni ko‘zga yuklaydi: “Agar ko‘z ko‘rmaganida edi, biz bu ishning tuhmatiga qolmagan bo‘lar edik”.

Baytda ko‘ngil, ko‘z – poetik obrazlar hisoblanadi. Savol-javob, yani diologdan tashqari ko‘ngil, ko‘z so‘zlari tanosib, -tuhmati so‘zi –a tarzida qofiyalanib kelgan. Ushbu so‘zdagi –t tovushi raviy sanaladi, mutloq qofiya hisoblanadi. Bayt matnini struktural lisoniy jihatdan gapga aylantirsak, o‘z-o‘ziddan ma’lumki, so‘roq gap endi darak gapga aylandi. Jo‘nalish kelishigi ko‘ngluma-ko‘nglimga, fe’l -ayturki-aytadiki, ko‘zdindur- ko‘zdandir, kishilik olmoshi -ul-u tarzida qo‘llanilgan.

Ko‘zga chun dermenki: Ey tardomani yuzi qaro,
Sendin o‘lmish telba ko‘nglumning balo-yu vahshati.

Beshinchibaytda oshiq endi ko‘zning “yoqasidan oladi”: “Ey etagi ho‘l, yuzi qora”, ko‘nglimning balo-yu vahshati sen dan ekan-ku”.

Bayt mazmunini tushinish uchun unda ishlatilgan tardomani-etagi ho‘l, telba-jinni (esi joyida emas), vahshati-ofat (g‘am-g‘ussa) tarzida so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini anglab olish zarur. Baytda ko‘z – poetik obraz. Savol-javobdan tashqari tardomani, yuzi qaro, telba ko‘nglum kabi sifatlashlar ham ishlatilgan, balo-yu vahshati so‘zlari sinonimdir. Vahshati so‘zi –a tarzida qofiyalanib kelgan. Ushbu so‘zdagi –t tovushi raviy sanaladi, mutloq qofiya hisoblanadi. Bog‘lovchilar -chun-chunki, fe’l – dermen-derman: Kishilik olmoshi sendin-sendan tarzida shakllangan. Ey-undov so‘z, tardomani “yuzi qaro”-ibora, ya’ni gunohkor, aybdor ma’nolarini anglatadi. Bayt matnini struktural lisoniy tahlil qiladigan bo‘lsak, poetikaning talabi bilan inversiya hodisasi yuz berganligini ko‘ramiz. Poetik ritmik nutqni sintaktik jihatdan gapga aylantirsak, so‘roq gap darak gapga aylanadi.

Yig‘lab aytur ko‘zki: “Yo‘q erdi manga ham ixtiyor, -
Kim ko‘rundi nogahon ul sho‘xi mahvash tal’ati”.

Oltinchi baytda ko‘zning yig‘lab aytgan javobi berilgan:

“Menda ham ixtiyor yo‘q edi, nogahon ul sho‘xi Mahvash (Oysifat) tal’ati (qiyofasi) ko‘rinib ketgan bo‘lsa, men nima qilay?”

Baytda ko‘z, mahvash – poetik obrazlar hisoblanadi. Bayt mazmunini tushinish uchun unda ishlatilgan “mahvash”-oy yanglig‘ go‘zal, “tal’ati” -surati (qiyofasi), “Azal”-taqdir tarzida so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini anglab olish zarur. Sho‘xi mahvash birikmasidagi sho‘xi so‘zi sifatlash hisoblanadi. Ushbu so‘zdagi –t tovushi raviy sanaladi, mutloq qofiya hisoblanadi. Bog‘lovchilar -chun-chunki, fe’l –dermen-derman: Kishilik olmoshi ul-u, manga-mandan tarzida shakllangan, bog‘lovchilar kim-negaki Bayt matnini struktural lisoniy tahlil qiladigan bo‘lsak, poetikaning talabi bilan inversiya hodisasi yuz berganligini ko‘ramiz. Poetik ritmik nutqni sintaktik jihatdan gapga aylantirsak, so‘roq gap darak gapga aylanadi.

Ey Navoiy, barcha o‘z uzrin dedi, o‘lguncha kuy, -
Kim sanga ishq o‘ti-o‘q ermish azalning qismati.

Maqta ‘ga kelganda lirik qahramon shoirga murojaat qilib: “Ey Navoiy, barcha o‘z uzrini aytdi, sen o‘lganingcha kuy, chunki ishq o‘ti senga azalning qismati ekan”, - deydi. Shoirning adabiy taxallusi g‘azalning so‘nggi misrasida keltiriladi.

14. G‘azal haqida yakuniy xulosa beriladi.

“Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..” matla’si bilan bosh-lanadigan g‘azal Navoiyning yetuk ijod namunalaridan biridir. Navoiyning mazkur g‘azali matni tahlili jarayonida, uning muhabbat mavzuida ekanligi oydinlashadi. G‘azalning har bir baytida o‘ziga xos ohoriy (original) badiiy ifoda va tasvirlarga duch kelamiz. Muallif hech kimning xayoliga kelmagan tarzda baytlarni baytlarga mantiqan bog‘laydi. Jon (birinchi bayt), jism (ikkinchi bayt), bag‘ir (uchinchi bayt), ko‘ngil (to‘rtinchi bayt), ko‘z (beshinchi va oltinchi baytlar) bilan bo‘lib o‘tgan savol-javoblarda kuchli izchillik va o‘zaro ketma-ketlik bor. Jon aybni - jismga, jism - bag‘irga, bag‘ir - ko‘ngilga, ko‘ngil - ko‘zga yuklaydi.

Oxiri, lirik qahramon ishqda yonish uning azaliy qismati ekanini tan oladi.

9-sinfda[9] Alisher Navoiy “Xamsa”sining ikkinchi “Farhod va Shirin” dostoni kiritilgan. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”i undan oldin shu mavzuda yozilgan dostonlardan, xususan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy talqinidagi dostonlardan tubdan farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, ustozlar tomonidan qalamga olingan Farhod obrazining butun bir dostonning bosh qahramoni sifatida talqin qilinishida, Farhodni yaxlit bir ideal obraz – komil inson darajasida tasvirlanishida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Bu jarayonda o‘qituvchi Alisher Navoiyning dostonda Farhodning ishqu muhabbatdagi “so‘zu dard”- kuyish va dardlariga alohida e’tibor berganini o‘quvchilarga uqtirishi lozim bo‘ladi.

Demak, Farhod timsoli yaratilar ekan, garchi u Chin xoqoni o‘g‘li bo‘lsa-da, ammo unda "ishq ahli"ning komil insonning barcha fazilatlari mujassam etilgan. Ana shu jihatdan Alisher Navoiy Farhodi ustozlar yaratgan Farhodlardan mukammalligi bilan farq qiladi. Dostondagi boshqa obrazlar talqini esa ana shu asosiy g‘oya yo‘nalishiga bo‘ysindirilgan.

“Farhod va Shirin”dagi bu tasvir Shirin kabi komil insonlarni etishtiruvchi komil sharoitnи ham nazarda tutadi. Shunday bo‘lganda faqat erkaklargina emas, balki ayollar ham o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini har tomonlama yuzaga chiqora oladilar. Bu esa Alisher Navoiyning orzusi va asosiy maqsadi hamdir. Shuning uchun Alisher Navoiy tasviridagi Shirin o‘z taqdirini o‘zi hal qiladigan erkin shaxs. Bu holat quyidagi lavhada yaqqol ko‘zga tashlanadi: Shirinning dovrug‘ini eshitgan Xusrav unga sovchi yuboradi. Bu haqda Shiringa aytganlarida, u shunday javob beradi:

Dostonda Mehinbonu, Farhod otasi Xoqon, Shopur, Bahrom va shunga o‘xshash timsollar ham borki, ular asosiy qahramonlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaguvchi ijobiy timsollar sifatida tasvirlanadi. Ammo dostonda Xusrav, Sheruya singari salbiy timsollar ham borki, ular qattiq qoralanganlar. Buning sababi esa ularning xatti-harakat va qilmishlari ezgulik, osoyishtalik, obodonlikka qarshi bo‘lib, insonlarni komillikka intilishlariga g‘ov bo‘lganliklaridadir. Farhod, Shirin, Mehinbonu va minglab odamlarning o‘limiga sabab bo‘ladilar. Oxirda esa Xusrav o‘z o‘g‘li Sheruya tomonidan o‘ldiriladi, Sheruyani esa Farhodning do‘sti Bahrom mag‘lubiyatga uchratadi.

Demak, Alisher Navoiy tasvirida zolimlik yengiladi, adolat tantana qiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, Hazrat Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodini o‘quvchilarga to‘g‘ri va to‘liq yetkazib berishda yuqorida keltirilgan “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanish biz kutgan samarani beradi, o‘quvchilarning mavzuni to‘la va yaxlit tushunishlariga, ma’naviy zavq olishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Rahimova G., Allayorova N. Alisher Navoiy she’riyati namunalari tahlilida adabiy ta’lim metodlaridan foydalanish. Samarqand viloyati XTXQTMO Hududiy markazi va Hindistonning “A Multimdisciplinary Peer Reviewed Lournal”i bilan hamkorlikda “Ilm-fan va ta’limda integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari: innovatsion yechimlar va ilg‘or tajribalar”. Xalqaro Onlayin konferensiya. 2020 yil, 18-19 iyun. 467-473-b.
2. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2020.- 174 b.
3. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3- sinfi uchun darslik. –T.: “O‘qituvchi”, 2019 . -216 b.
4. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik. –T.: “Yangi yo‘l servis”, 2019 . – 240 b.
5. Axmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –T.: “Yangi yo‘l servis”, 2020 . – 247 b.
6. Ahmedov S., Qo‘chqorov Sh., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. –T.: “Ma’naviyat”, 2019 . -36-42 b.
7. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2019. 349 b.
8. Olim S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. –T.: “G‘.G‘ulom”, 2019. 352 b.
9. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T.: “Mitti Yuiduz”, 2019. 366 b.
10. To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi”, 2019. 184 b.